


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
SAMARAQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**



Ro'yxatga olindi: *BD-60220400*

2024

yil

"11" 09



"TASDIQLAYMAN"

Rektor: *R. X. Alimuradov*

2024 yil " " "

" O'RTA OSIYONING QADIMGI VA O'RTA ASRLAR

URBANIZASIYASI "

FAN DASTURI

Bilim sohasi: 200000 – San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi: 220000 – Gumanitar fanlar (Tillardan tashqari)
Ta'lim yo'nalishi: 60220400 – Arxeologiya

Fan/modul kodi O'QO' AU1606		O'quv yili 2026- 2027	Semestr 6	ECTS – Kreditlar 6	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1	Fan nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Umumiy soat
	Umumkasbiy fani: O'rta Osiyoning qadimgi va o'rta asrlar urbanizatsiyasi	72		108	180
2	I. Fanning mazmuni Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda “O'rta Osiyoning qadimgi va o'rta asrlar urbanizatsiyasi” fanining shakllanishi va taraqqiyoti, uning tarixiy fanlarni o'rganishdagi o'rni, jahon hamda, mamlakatimiz hududida moddiy-madaniyatlarning o'zaro bog'liqligi va xususiyatlari munosabatlarining shakllanishi haqida bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdir. Shuningdek, mazkur fan arxeologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriatni buyurtmachi tashkilot hisoblanuvchi Madaniy meros agentligi Yaxyo G'ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya institutiga dala arxeologik tadqiqotlarni amalga oshirishda va muziylarda shu soha bo'yicha to'la qonli bilim ko'nikmasiga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlashga o'z mazmuni bilan xizmat qiladi. O'rta Osiyoning qadimgi davlatlari va shaharlari, o'rta asrlar shaharlarining shakllanish asoslari va ularning shakllari va taraqqiyoti to'g'risida talabalarda xolisona ilmiy dunyo qarashni, ko'nikma va malaka shakllantirishdir. Fanning vazifasi – talabalarda fanning nazariy va amaliy masalalarini shuningdek, arxeologik manbalar turlari. Arxeologik manbalarining qadimgi davr tarixini yoritishdagi o'rni va ahamiyati. Arxeologik yodgorliklar. Arxeologik yodgorliklar turlari. Aholi manzilgohlari, qabr-qo'rg'onlar majmualari, diniy inshootlar majmualari, ishlab chiqarish bilan bog'lik inshootlar va majmualarini o'rgatishdan iborat. O'rta Osiyoning ilk shahar, davlatchilik va o'rta asrlar shaharsozlikning nazariy va moddiy asoslari masalalarini o'rgatishdan iborat. II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:				

1-mavzu:

Urbanizatsiya. Davlatchilik tushunchalari. Bu boradagi qarashlar va yondoshuvlar.

Bronza davri davlatlarining uch bosqichi. Ishlab chiqaruvchi xo'jalik shakllari taraqqiyoti davlatchilikka o'tish bosqichi sifatida. Yaqin Sharqning ilk davlatlari. Shahar davlatlar. Iqtisod, madaniyat, jahon dinining paydo bo'lishi. Dehqonchilik qadimgi Sharq sivilizatsiyalarining muhim manbai va uning tarqalishi. O'rta Osiyo sivilizatsiyasi o'troq dehqonchilik va chorvodor madaniy tiplari O'zaro ta'siri natijasi sifatida. Qadimgi O'rta Osiyo urbanizatsiyasi va davlatchiligi qaror topishining ikki asosiy bosqichi.

2-mavzu:

O'rta Osiyoning qadim davlatlari va shaharlari to'g'risida yozma manbalar.

«Avesto» va «Shohnoma» diniy va epik tarixiy an'analari Turon va Eronning qadim davlatlari to'g'risida. Yunon-rim manbalari O'rta Osiyoning qadim davlatlari va podsholari to'g'risida qadimgi Baqtriya to'g'risidagi yozma ma'lumotlar. Qadimgi Baqtriya podsholigi chegaralari muammosi. Gerodot Akes daryosidagi xorasmiylar to'g'risida. I.Markvart Akes daryosi va qadimgi xorasmiylar lokalizatsiyasi to'g'risida. Katta Xorazm to'g'risida S.P.Tolstov gipotezasi. O'rta Osiyoning Kir tomonidan bosib olinishidan oldin massaget va saklar davlatchiligi to'g'risidagi ma'lumotlar. Gerodot, Ktesiy va Ksenofontlar keltirgan ma'lumotlar. O'rta Osiyoning mil. av. I-ming yillikning birinchi yarmida o'rtalarida yashagan ko'chmanchi qabalalar to'g'risidagi yozma ma'lumotlar. Zarineya boshchiligidagi skiflar va Janubiy Orolbo'yi quyisoy madaniyati. Amyurgiya saklari, Xaumovarg saklari, Amyurg hukmronligi davridagi saklar, ularning lokalizatsiyasi, shaharlari va davlatchilik masalalari. Gerodotda keltirilgan massagetlar. Massagetlarning lokalizatsiyasi va madaniy atributsiyasi. O'rta Osiyo qadimgi ko'chmanchilari hokimiyat shakllari va davlatchiligi xususiyatlari.

3-mavzu:

O'rta Osiyoning eneolit va bronza davri protoshahar sivilizatsiyasi ildizlari. O'rta Osiyo hududiga qadimgi Sharq sivilizatsiyasining tarqalishi murakkab strukturadagi jamiyat taraqqiyotining tabiiy qulay hududlarga aloqa

yo'llari orqali yoyilishining natijasi sifatida. Namozgoh madaniyati. Mudofaa tizimi, hunarmandchilik mahallalari va ibodatxona komplekslariga ega bo'lgan Oltintepa Janubiy Turkmanistonda yuqori darajadagi madaniyat markazi sifatida. Bu turdagi madaniyatning So'g'd hududiga ko'chishi. Sarazm Sharqning O'rta Osiyo eneolit davri dehqonchilik markazi sifatida. Sarazm protoshahar madaniyatining davri va sanalari. Shimoliy viloyatlardagi ko'chmanchi qabilalar o'troq dehqonch. Baqtriyaning protoshahar va qadimgi shahar madaniyati. Baqtriyada shakllangan dehqonchilik vohalarini rayonlashtirish xususiyatlari. Muhofazalangan Sopolli manzilgohi. Jarqo'ton qadimgi shahri imoratlari strukturasi Baqtriyaning rivojlangan bronza davri jamiyati tabaqalashuvining shakllanishi natijasi sifatida. Jarqo'ton manzilgohi Shimoliy Baqtriyaning qadimgi shahri va ma'muriy markazi namunasi sifatida. Shimoliy Baqtriya madaniyati taraqqiyotini davrlashtirish va xronologiya masalalari. Janubiy Baqtriyada Dashli 3 ibodatxona saroylari koinot tuzilishi aksi sifatida. Marg'iyona bronza davri manzilgohlarining rayonlashishi va Janubiy Turkmanistonning tog'oldi va Yaqin Sharq hududlarida ilik manzilgohlari inqirozining ekologik omillari va Amudaryo havzasida yangi yerlarning o'zlashtirilishi joylashishi. Janubiy Turkmanistonning hududlari va Yayin Sharqda manzilgohlar inqirozining ekologik omillari hamda Amudaryo havzasida yangi yerlarning o'zlashtirilishi. Marg'iyonaning moddiy madaniyati va Baqtriya, Marg'iyona arxeologik kompleksi tushunchasi (BMAK). Marg'iyonaning bronza davri diniy jamoatchilik markazlari. Tug'aloq 21, Tug'aloq1, Janubiy Gonur. Marg'iyonaliklar Mitra sharafiga xaomani bag'ishlash odatlari. Zarafshon vohasi bronza davri o'troq dehqonlari va ko'chmanchi charvodorlari o'zaro aloqa zonasi sifatida. O'rta Osiyoda Andronovo madaniyati.

4-mavzu:

O'rta Osiyoning janubiy hududlarida qadimgi shahar madaniyatining shakllanishi va taraqqiyoti

So'nggi boronzi va ilk temir davlarida O'rta Osiyoga madaniyatlar migirasiyasi va xalqlarning tarqalishi. Yozdepa manzilgohining muhofazalanishi. Yozdepa sitalelidagi qazish ishlari. Marg'iyonaning so'nggi bronza va ilk temir davri manzilgohlarining hududiy joylashuvi. Yozdepa Marg'iyonaning ma'muriy markazi. Yozdepani davrlashtirish va xronologiya muammolari. Shimoliy Baqtriyaning so'nggi bronza va ilk temir davri manzilgohlarining tiplari va hududiy joylashuvi. Surxon vohasida muhofazalangan Kuchuktepa va qiziltepa manzilgohlari. Ularning tuzilishi va taraqqiyoti. Tillatepa Janubiy Baqtriyaning qadimgi otashparastlik ibodatxonasi. Tillatepa kompleksi taraqqiyoti. Baqtriyada

so'ngi bronza va ilk temir davri va Avesto diniy marosimlarining poydo bo'lish davri.

5-mavzu: Yunon-rim manbalarida O'rta Osiyoning qadimgi davlatlari va xalqlari to'grisida

Qadimgi Baqtriya podsholigi chegalari muammosi. Gerodot Akes daryosidagi xorasmiylar to'g'risida. I.Markvart Akes daryosi va qadimgi xorasmiylar lokalizatsiyasi to'g'risida. Katta Xorazm to'g'risida S.P.Tolstov gipotezasi. O'rta Osiyoning Kir tomonidan bosib olinishidan oldin massaget va saklar davlatchiligi to'g'risidagi ma'lumotlar. Gerodot, Ktesiy va Ksenofontlar keltirgan ma'lumotlar. O'rta Osiyoning mil. av. 1-ming yillikning birinchi yarm iva o'rtalarida yashagan ko'chmanchi qabalalar to'g'risidagi yozma ma'lumotlar. Zarineya boshchiligidagi skiflar va Janubiy Orolbo'yi quyisoy madaniyati. Amyurgiya saklari, Xaumovarg saklari, Amyurg hukmronligi davridagi saklar, ularning lokalizatsiyasi, shaharlari va davlatchilik masalalari

6-mavzu: O'rta Osiyoning eneolit va bronza davri protoshahar sivilizatsiyasi

Keyingi yillardagi tadqiqotlar tufayli O'rta Osiyoning janubiy viloyatlari, xususan, Marg'iyona va Baqtriya hududlari paleolit davridan boshlab odamzotning makoni bo'lib kelganligi, mezolit davrining oxirlari va neolit davrida ularning merosxo'rlari oddiy dehqonchilik va xonaki chorvachilik asosida mahsulot ishlab chiqarishganlar. Bu jamoalar avlodlarining davomchilari esa bronza davrida, ayniqsa, uning so'nggi bosqichlarida yirik aholi markazlarining, ya'ni ilk shaharsozlikning paydo bo'lishida uning haqiqiy ijodkorlari bo'ldilar. Bu jarayonning mahalliy asosda paydo bo'lganligi va Sharq sivilizatsiyasining ajralmas qismi ekanligini olimlarimizning qator izlanishlarida o'z yechimini topdi.

O'rta Osiyoda va xususan, O'zbekistonda shaharlashish yoki urbanizatsiya masalalarini o'ragnishda V.M.Masson, A.Asqarov, Y.F.Buryakov, V.I.Gulyayev, A.S.Sagdullayev, P.Adams, V.I.Sarianidi, E.V.Rtveladze, Y.V.Andreyev, E.V.Sayko, T.SH.Shirinov kabi olimlarning tadqiqotlari muhim ahamiyatga egadir. Bu tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, so'nggi bronza davri va ilk temir asri O'rta Osiyo janubiy mintaqalarida yashagan xalqlar tarixida muhim burilish davri bo'lgan.

7-mavzu: Namozgoh madaniyatlari

Namozgoh davrining yirik poytaxti darajasiga ko'tarilgan yodgorliklari Namozgohtepa bo'lib, Janubiy Turkmanistonning Kopetdog' etaklarida Lunsuy

vohasida joylashgan. Maydoni 70 ga, madaniy qatlami qalinligi joylarda 34 metrgacha boradi. Yodgorlikda 1949-1952 yillari B.A.Kaftin boshchiligidagi arxeologik ekspeditsiya qazishmalar olib borib, O'rta Osiyo eneolit va jez davriga oid arxeologik davriy sistemani ishlab chiqdi. 1950-yillarning o'rtalaridan boshlab yodgorlikni V.M.Masson boshchiligidagi Sankt-Petrburg arxeologlar guruhi o'rgandi.

8-mavzu: Oltintepa protoshahar madaniyatlari

Oltintepa Janubiy Turkmanistonda yuqori darajadagi madniyat markazi sifatida. Bu turdagi madaniyatning So'g'd hududiga ko'chishi. Sarazm Sharqning O'rta Osiyo eneolit davri dehonchilik markazi sifatida Oltintepa protoshahar madaniyatining davri va sanalari. Shimoliy viloyatlardagi ko'chmanchi qabilalar o'troq dehqonch. Baqtriyaning protoshahar va qadimgi shahar madaniyati.

9-mavzu: Sarazm madaniyatlari

Sarazm protoshahar madaniyatining davri va sanalari. Sarazm Sharqning O'rta Osiyo eneolit davri dehonchilik markazi sifatida. Sarazm protoshahar madaniyatining davri va sanalari. Baqtriyaning protoshahar va qadimgi shahar madaniyati. Baqtriyada shakllangan dehqonchilik vohalarini rayonlashtirish xususiyatlari. Muhofazalangan Sopoli manzilgohi. Jarqo'ton qadimgi shahri imoratlari strukturasi Baqtriyaning rivojlangan bronza davri jamiyati tabaqalashuvining shakllanishi natijasi sifatida.

10-mavzu: So'g'dning qadimgi shahar madaniyati.

So'g'dning qadimgi dehqonchilik vohalarini rayonlashtirish. 90-yillarda qo'lga kiritilgan arxeologik kashfiyotlar. So'g'd urbanizasiyasining ilk bosqichi. Ko'ktepa Samarqand vohasi o'ng sohilidagi ilk temir davri yirik shahri. Afrosiyob So'g'dning asosiy poytaxt shaxri. qashqadaryo vohasida Kesh va Naxshab. Sangirtepa va Uzunqir Keshning eng qadimgi shahar markazlari. Yerqo'rg'on qarshi vohasining birinchi ma'muriy markazi. Yerqo'rg'on davri imoratlarining o'rni. Mil. av. 8-7 asrlar So'g'dda davlatchilik shakllangan davr. Aloqa mintaqalarida ijtimoiy munosabatlarning shakllanish xususiyatlari va protoshahar, qadimgi shahar madaniyati. Chust madaniyati. Manzilgohlar tipologiyasi va ularning joylashuvi strukturalari. Chust madaniyati me'morchiligi, mudofaa tizimi va hunarmandchilik. Chust madaniyati xronologiyasi. Ustrushana-Sirdaryoning o'rta oqimida dastlabki muhofazalangan manzilgohlarning vujudga kelishi. Manzilgohlarning asosiy shakllari va ularning xronologiyasi.

11-mavzu: Shosh-Toshkent vohasi shaharsozlik madaniyati

Qadimgi Toshkent hududida ilk shaharlarning paydo bo'lishi Shosh-Toshkent vohasi shaharsozlik madaniyati. Burg'ulik madaniyati. Qanqa, Shoshtepa shaharsozlik madaniyatlari. Tuyabo'g'iz qasabasi. Ellin shahri-Qanqa. Buryakov, Zilper, M.Filanovich va boshqa olimlarning tadqiqotlari.. Mingo'rik shaharsozligi: qal'a, xochsimon bino, ibodatxona, quyoshga sig'inish. Qang' davlatining tashkil topishi. Qang' davlati shaharlaridagi ijtimoiy tuzum va xo'jaligi. Qadimgi Farg'ona hududida ilk shaharlarning paydo Chust madaniyati.

12-mavzu: Xorazm hududida qadimgi shaharlar madaniyati.

Mil. avv. I ming yillikning boshlari dehqonchilik va chorvachilik qabilalari. S.R. Tolstov, M.M.Mambetullayev tadqiqotlari. Xorazm shaharlari xronologik bosqichlari. Mil. avvalgi IV-I asrlar qadimgi Xorazmda shaharsozlik madaniyatining gullab-yashnagan davri. Shaharlar vohani dashtdagi qo'shni qabilalardan mudofaa qilish maqsadida qurilgan. Ko'zaliqir, Chirikrabort, Qal'aliqir, Kangaqal'a, Jonbosqal'a, Bozorqal'a, Qo'rg'oshinqal'a, Qirqqiz, Ayozaqal'a, Bo'rliqal'a va Tuproqqal'a. Sug'orish inshootlarining etagida birlariga yaqin va qator qilib qurilgan. Bir rejaga asoslangan mustahkam devorlar.

13-mavzu: O'rta Osiyo shaharlarining paydo bo'lishi va rivojlanishi. Shahar tarixiy kategoriya sifatida. Iyerarxiya funksiyalari. O'rta asr shaharlarining tarkibiy qismlari. O'rta Osiyo o'rta asr shaharlarini o'rganishda tadqiqotchi-orientalistlarning hissasi. Shaharlarning tarixiy topografiyasini o'rganish uslubiyatiga kirish. Ilk o'rta asrlar davrida shahar-madaniyatining inqirozi. Iqtisodiy ko'tarilish; ko'hna (Samarqand, Buxoro, Yangi Panjikent va Poykand) shahar markazlarining rivojlanishi. So'g'd madaniyatining qo'shni hududlarga tasiri. O'rta Osiyo o'rta asr shaharlarining Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari shaharlari bilan parallel rivojlanishi. O'rta asrlar davrida O'rta Osiyo olimlari asarlarida "shahar" tushunchasi. X-XII asrlarda shahar madaniyati ravnaqi. O'rta Osiyoning o'rta asr shaharlarida obodonchilik.

14-mavzu: Amudaryo va Surxondaryo vohasi shaharlari. Termiz V-VII asrlarda. Shahar joylashgan o'rni va tuzilishi haqida Xitoy manbalari. Termiz arablar istilosi davrida. Chag'oniyon (Sag'oniyon-Budrach). Somoniylar davrida

Termiz, rejalashtirish, asosiy qurilishlar. Arab mualliflari ma'lumotlari. Termiz G'aznaviylar, Qoraxoniylar va Saljuqiylar davrida. Shahar tuzilishi va uning mavzolari, zamonaviy yirik shaharga aylanishi. Termiz mo'g'ullar istilosidan so'ng, shahar hududining o'zgarishi. Temuriylar davri tarixiy manbalarida Termiz shahri, uning vazifasi va qurilishi tarixi. Termiz so'nggi o'rta asrlar davrida.

15-mavzu: Qashqadaryo vohasi shaharlari

Su-se – Kesh – Kitob ilk o'rta asrlar poytaxti. Kesh tarixiy xujjatlarda. IX-XII asrlardagi Kesh haqida arxeologik ma'lumotlar. O'rta asrlarda Shaxrisabz, Qashqadaryo daryosining yuqori va o'rta oqimlaridagi o'rta asr shaharlari, tarixiy va arxeologik ma'lumotlar. Qamaytepa, Oltintapa (Novqad-Quraysh), Kishmishtepa. Amir Temur va temuriylar davrida Shaxrisabzning gullab-yashnashi. Rejalashtirish, asosiy me'moriy yodgorliklar. Naxshab ilk o'rta asrlarda. Yerqo'rg'on shahri. Rejalashtirish, so'nggi arxeologik tadqiqotlar. O'rta Asrlardagi Nasaf (Shulluktepa), Kasba (Kasbi), Bezda (Ko'hna Fazli), Gubdin (Tallisart), Qarshi. Shaharning vujudga kelishi va rivojlanishi haqidagi tarixiy ma'lumotlar.

16-mavzu: O'rta Zarafshon shaharlari

O'rta asrlardagi Samarqand topografiyasi haqida (V.V. Bartold, A.I. Vyatkin, A.I. Masson va boshqalar). Xitoy va arab geograflari Samarqand haqida. Ark, shahriston, rabotlar rivojining o'sish bosqichlari. Hunarmandchilik dahalari. Mudofaa tizimi, saroy va ibodatxonalar, turar-joylar qurilishi. Panjikent-arxeologik reja asosida eng ko'p o'rganilgan O'rta Osiyoning ilk o'rta asr shahri. Rejalashtirish, mudofaa tizimi, turar-joylar, hunarmandchilik, savdo inshootlari, saroy, ibodatxonalar qurilishi, obodonchilik. Miyonqal'a shahri. Samarqand Amir Temur va temuriylar davrida. Amir Temurning shaharlar qurilishiga oid siyosati. Me'moriy rejali qarorlari. Asosiy mahobatli qurilishlar. XIV-XV asrlarda saroy-bog'lar me'morchiligi.

17-mavzu: Buxoro vohasi shaharlari

Buxoro ilk o'rta asrlar davrida. Varaxsha, Romitan, Vobkent. Poykand-savdo shahar-davlati. Arxeologik tadqiqot natijalari. Turar-joy, saroy, ibodatxonalar me'morchiligi. Buxoro - Somoniylar davlatining poytaxti, tarixiy manbalar va arxeologik ma'lumotlari. Buxoro Amir Temur va temuriylar davrida. Shayboniylar davrida Buxoroning ravnaqi. Rejalashtirish, dahalar, asosiy hashamatli qurilishlar. Tarixiy manbalar. Buxoro XVII asrda.

18-mavzu: Farg'ona vohasi shaharlari

Mintaqa shahar madaniyati vujudga kelish jarayonida Buyuk Ipak yo'li savdosining ta'siri. Xitoy va arab manbalarida Farg'ona shaharlari. O'rta asrlar davri shaharlari: Axsikat, Quva (Qubo), O'sh, Uzgan, Xo'jand, Qo'qon. Rejalashtirish, asosiy me'moriy qurilishlar, Andijon XIV-XVI asrlarda. Yettisuvda So'g'd mustamlakachiligi. Qizildaryo Shaharsozlik madaniyati. So'nggi o'rta asrlarda Farg'ona vohasi shaharlari. Qo'qon xonligi markazlari. Shaharlar topografiyasi. Poytaxt. Namangan, Qo'qon, Marg'ilon va b.lar tarixi.

III. Amaliy (yoki seminar yoki laboratoriya) mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Seminar mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilimlarini mustaqil tahlil qilish orqali xulosalar chiqarish ko'nikmalarini shakllantiradilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, mavzular bo'yicha ma'ruzalar tayyorlash, ko'rgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1-mavzu: Urbanizatsiya. Davlatchilik tushunchalari. Yondoshuvlar

2-mavzu: Shaharsozlik va davlatchilik tarixi masalalarini o'rganish zaruriyati.

3-mavzu: Urbanizatsiya. Davlatchilik tushunchalari

4-mavzu: O'rta Osiyoning qadimgi davlatlari va shaharlari to'g'risida yozma manbalar.

5-mavzu: Yunon-rim manbalarida qadimgi davlatlar va xalqlar to'g'risidagi

6-mavzu: O'rta Osiyoning eneolit va bronza davri protoshahar sivilizatsiyasi

7-mavzu: Namozgoh, Oltintepa, Sarazm madaniyatlari

8-mavzu: O'rta Osiyoning janubiy xududlarida qadimgi shahar madaniyatining shakllanishi va taraqqiyoti.

9-mavzu: Chust madaniyati

10-mavzu: So'g'dning qadimgi shahar madaniyati

11-mavzu: Markaziy So'g'dning qadimgi shahar madaniyati:

- 12-mavzu: Shosh-Toshkent vohasi shaharsozlik madaniyati.
 13-mavzu: Xorazm hududida qadimgi shaharlar madaniyati
 14-mavzu: O'rta Osiyo shaharlarining paydo bo'lishi va rivojlanishi
 15-mavzu: Amudaryo va Surxondaryo vohasi shaharlari
 16-mavzu: Amudaryo va Surxondaryo vohasi shaharlari
 17-mavzu: O'rta Zarafshon vohasi shaharlari.
 18-mavzu: Buxoro vohasi shaharlari.

IV. Mustaqil ta'lim mavzulari

1	O'rta Osiyoning qadimgi davlatlari va shaharlari to'g'risida yozma manbalar.
2	O'rta Osiyoning eneolit va bronza davri protoshahar sivilizatsiyasi
3	O'rta Osiyoning janubiy xududlarida qadimgi shahar madaniyatining shakllanishi va taraqqiyoti.
4	So'g'dning qadimgi shahar madaniyati
5	Shosh-Toshkent vohasi shaharsozlik madaniyati
6	O'rta Osiyoning qadimgi davlatlari va shaharlari to'g'risida yozma manbalar.
7	O'rta Osiyoning eneolit va bronza davri protoshahar sivilizatsiyasi
8	O'rta Osiyoning janubiy xududlarida qadimgi shahar madaniyatining shakllanishi va taraqqiyoti.
9	So'g'dning qadimgi shahar madaniyati
10	Shosh-Toshkent vohasi shaharsozlik madaniyati
11	O'rta Osiyoning qadimgi davlatlari va shaharlari to'g'risida yozma manbalar.
12	O'rta Osiyoning eneolit va bronza davri protoshahar sivilizatsiyasi
13	O'rta Osiyoning janubiy xududlarida qadimgi shahar madaniyatining shakllanishi va taraqqiyoti.
14	So'g'dning qadimgi shahar madaniyati
15	Shosh-Toshkent vohasi shaharsozlik madaniyati
16	O'rta Osiyoning qadimgi davlatlari va shaharlari to'g'risida yozma manbalar.
17	O'rta Osiyoning eneolit va bronza davri protoshahar sivilizatsiyasi
18	O'rta Osiyoning janubiy xududlarida qadimgi shahar madaniyatining shakllanishi va taraqqiyoti.
19	So'g'dning qadimgi shahar madaniyati
20	Shosh-Toshkent vohasi shaharsozlik madaniyati

“O'rta Osiyoning qadimgi va o'rta asrlar urbanizatsiyasi” fani bo'yicha

mustaqil ta'lim mavzulari uning mazmunini yoritish maqsadida tanlangan va talabada shu haqida bilim ko'nikmasini shakllantirish nazarda tutilgan. Jumladan, O'rta Osiyo miqiyosida dastlabki tuzilgan arxeologik ekspeditsiyalari tarixiga oid mavzuda IOTAKE, XAƏƏ, KATƏ, Termiz va boshqa arxeologik ekspeditsiyalar tarixi haqida talabada bilim ko'nikmasini shakllantirish e'tiborga olingan. O'rta Osiyo hududiga qadimgi Sharq sivilizasiyasining tarqalishi murakkab strukturadagi jamiyat taraqqiyotining tabiiy qulay hududlarga aloqa yo'llari orqali yoyilishining natijasi sifatida. Namozgoh madaniyati. Mudofaa tizimi, hunarmandchilik mahallalari va ibodatxona komplekslariga ega bo'lgan Oltintepa Janubiy Turkmanistonda yuqori darajadagi madniyat markazi sifatida. Bu turdagi madaniyatning So'g'd hududiga ko'chishi. Sarazm Sharqning O'rta Osiyo eneolit davri dehqonchilik markazi sifatida. Sarazm protoshahar madaniyatining davri va sanalari. Shimoliy viloyatlardagi ko'chmanchi qabilalar o'troq dehqonch. Baqtriyaning protoshahar va qadimgi shahar madaniyati. Baqtriya shakllangan dehqonchilik vohalarini rayonlashtirish xususiyatlari. Muhofazalangan Sopoli manzilgohi. Jarqo'ton qadimgi shahri imoratlari strukturasi Baqtriyaning rivojlangan bronza davri jamiyati tabaqalashuvining shakllanishi natijasi sifatida. Jarqo'ton manzilgohi Shimoliy Baqtriyaning qadimgi shahri va ma'muriy markazi namunasi sifatida. Shimoliy Baqtriya madaniyati taraqqiyotini davrlashtirish va xronologiya masalalari. Ushbu mavzu haqida keyingi tadqiqotlar olib borgan ekspeditsiya faoliyati ham keng ma'lumotlar berib ular haqida ham o'quvchilar bilim ko'nikmasiga ega bo'ladi. Shu mazmunda MT da nazarda tutilgan mavzular haqida talabalar ish olib borishadi. Barcha keltirilgan mavzularni har biri to'g'risida talabalar qay tarzda o'zlashtirish, bilim ko'nikmasiga ega bo'lish mexanizmi fanning sillabusida ochib beriladi.

3 V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

O'rta Osiyoning qadimgi va o'rta asrlar urbanizatsiyasi va uning tarixi, rivojlanish bosqichlari bilan tanishtirish va talabalarda xolisona ilmiy dunyo qarashni, ko'nikma va malaka shakllantirishdir. hamda boshqa tarmoqlarning rolini, ularning nazariy va amaliy asoslari ko'nikmasiga ega bo'lishi va ulardan ilmiy maqsadlarda foydalanishni ***bilishi kerak***;

- Talaba tarixiy va bugungi kun ma'lumotlarini ilmiylik, tarixiylik, xolislik asosida o'rganish. Moddiy ashyolari va internet ma'lumotlarni, arxeologik manbalarni mustaqil tadqiq qilish, o'rganish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak***;

« O'rta Osiyoning qadimgi va o'rta asrlar urbanizatsiyasi » fani maqsadlarida foydalaniladigan zamonaviy texnika vositalaridan foydalanish ***malakalariga ega bo'lish kerak***.

4	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • ma'ruzalar; • interfaol keys=stadllar; • aqliy hujum; • klasterlarga bo'llish; • "Bumerang" texnologiyasi; • "Skarabey" texnologiyasi; • "Beep" texnologiyasi; • "Tarozi" texnologiyasi.
5	VII. Kreditni olish uchun talablar: Fanga old nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish
6	Asosiy adabiyotlar: 1. I.Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. 1997. 2. I.Karimov. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. Toshkent. 2008. 3. Suleymanov R.X. Drevniy Naxshab., 2000. 4. Eshov B.J. Qadimgi O'rta Osiyo shaharlari. T. 1986. 5. Eshov B.J. O'rta Osiyoning qadimgi shaharlari tarixi. Darslik. Toshkent. 2008. pdf. Qo'shimcha adabiyotlar: 1. Albaum L.I. Balalik-tepe. T.1960. 2. Shishkin V.A. Varaxsha. M. 1963. 3. Koy-Krilgan-Kala - pamyatnik IV v. do n.e. - IV v.n.e. (Pamyatnik kulturi Drevnego Xorezma IV v. do n. e.- IV v. n. e.). M.1967. 4. Isakov A.I. Sitadel drevnego Pendjikenta. Dushanbe. 1977. 5. Isamiddinov M.X. i dr. Yerkurgan (stratigrafiya i periodizasiya). 1984. 6. G'ulomov Ya.G'. Xorazmning sug'orilish tarixi. 1959. 7. Kabanov S.K. Kultura selskix poseleniy Yujnogo Sogda III-VI vv. T.1981. 8. Kabanov S.K. Naxsheb na rubeje drevnosti i srednevekovya (III-VII vv.). T.1977. 9. Buryakov Yu.F. Po drevnim karavannym putyam Tashkentskogo oazisa. T.1978. 10. Ter-Mkrtichyan L.X. Armyanskiye istochniki o Sredney Azii, V-VII vv. M.1979. 11. Po sledam drevnix kultur Kazaxstana. Alma-Ata. 1970. 12. Pugachenkova G.A. Drevnosti Miankalya. T.1989. 13. Pugachenkova G.A. Rtveladze E.V. i dr. Dalverzintep - kushanskiy gorod na yuge O'zbekistana. T.1978. 14. Toshkent Muhammad Solih tavsifida (XIX asr). T.1983. Axborot manbalari (saytlar):

	1. www.ziyonet.uz . 2. www.edu.uz . 3. www.google.uz . 4. www.fvat.uz . 5. www.turklib.uz .
7	Fan dasturi Samarqand davlat universiteti O'quv-uslubiy kengashining 2024 yil 30-avgustdagi 1 -son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8	Fan/modul uchun mas'ullar: Umarov U.- SamDU, ""Arxeologiya"" kafedrasi assitenti
9	Taqrizchilar: Xolmatov N.O' - Arxeologiya kafedrasi professori, t.f. d. (Ichki) Samarqand arxeologiya institutining kata ilmiy xodimi dots.Saidov M. (Tashqi)

Universitetning 2024-yil 16- avgustdagi 301-ij buyrug'i asosida
Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma'sul ishchi guruhi:

Rais - Xolmatov N.O'.

Kafedra mudiri:

Kengash raisi:

O'quv ishlari bo'yicha 1-prorektor:



dots. O.T.Ergashev

prof. D.M.Djuraqulova

prof. A.S.Soleyev.

**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti
talabalari uchun tuzilgan "O'rta Osiyoning qadimgi va o'rta asrlar
urbanizatsiyasi" fanining fan dasturiga**

TAQRIZ

O'rta Osiyoning qadimgi va o'rta asrlar urbanizatsiyasi fani tarixni o'rganishda asosiy fanlar qatorida bo'lib, eng ishonchli manbalarni bera oladi. Har bir tarixchi bu fanning tub mohiyatini ang'ay olishi, uning sir-sinoatlarini bilishi lozim. Ayniqsa, ibtidoiy jamoa tarixi, qadimgi dunyo tarixi va o'rta asrlar tarixini haqiqiy yuzni ochib berishda arxeologiya fani yutuqlariga murojaat qilishimiz lozim hisoblanadi. Lekin, bu fanning asl mohiyatini tushunib yetmasdan, uning maqsad va vazifasini ang'ay olmasdan, oldimizagi muammoning yechimini topish ancha mushkul ish hisoblanadi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatida muhim o'ziga xos o'rni ega bo'la boshladi. Bu shubhasiz, davlatchiligimizning yangi pog'onaga chiqqanligidan dalolat beradi. Mana shu jihatlarni inobatga olgan holda, "O'rta Osiyoning qadimgi va o'rta asrlar urbanizatsiyasi" fani fan sifatida oliy o'quv yurtlarining tarix yo'nalishi talabalariga o'tilishi kerak bo'lgan fanlardan hisoblanadi. Bu fan arxeologiya fanini endi o'rganayotgan talabalar, bu fanga qiziquvchilar uchun fundamental ma'lumotlarni bera oladi.


O'quv dasturlari va fan sillabuslari ta'lim tizimidagi har bir o'quv fanining mazmuni va o'tilish tartibini, talabalar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim hamda ko'nikmalar hajmini belgilab beradigan, rasmiy pedagogik hujjat hisoblanadi. O'quv dasturi va fan sillabusi tegishli vazirliklar qoshidagi ilmiy metodik kengashlar yoki tegishli oliy ta'lim muassasalari kengashlari tomonidan tasdiqlanadi. O'quv fanining maqsad va vazifalarini belgilab berish O'quv dasturi va fan sillabusining muhim belgisi hisoblanadi. Chunki, ayni shu narsa yaratiladigan o'quv darsligi muallifiga muayyan nuqtayi nazarni tanlash, o'qituvchiga esa pedagogik mo'ljalni to'g'ri belgilash imkonini beradi.

Ta'lim amaliyotida O'quv dasturi va fan sillabusi yaratishning konsentrik (markazlashgan) hamda tizimli usullari bor. Konsentrik yo'l bilan tuzilgan O'quv dasturi va fan sillabusida ta'limning mazmuni yoki o'quv materiallari o'qitishning keyingi bosqichida yuksakroq darajada takrorlanishi ko'zda tutiladi. Tizimli usuldagi O'quv dasturi va fan sillabuslarida esa o'quv materiallari fan mantig'iga muvofiq soddadan murakkabga qarab ketma-ket joylashtiriladi.

Ta'limning O'quv dasturi va fan sillabusi tomonidan belgilangan mazmuni darslik, o'quv qo'llanmalar, ko'rgazmali qurol va metodik tavsiyalarda to'la namoyon bo'ladi. Mazkur fan dasturi "O'rta Osiyoning qadimgi va o'rta asrlar urbanizatsiyasi" tanlov fani bo'yicha yaratilgan bo'lib, unga mazkur yo'nalish xususiyatlarini hisobga olgan holda ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlari uchun mavzular va ularni bayon etish uchun zarur ko'rsatma va tavsiyalar keltirilgan. Shuningdek, mustaqil ta'lim shakllari va mavzulari, fanni o'qitish natijalari, ta'lim texnologiyalari va metodlari hamda asosiy va qo'shimcha adabiyotlar batafsil bayon etilgan.

Fan dasturi "O'rta Osiyoning qadimgi va o'rta asrlar urbanizatsiyasi" fanining mazmuni, talabalar bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talablar bo'lajak arxeolog va arxeologiya fani o'qituvchisi kelgusidagi kasb faoliyati uchun mos keladigan nazariy tushunchalarni o'z ichiga qamrab olgan.

"O'rta Osiyoning qadimgi va o'rta asrlar urbanizatsiyasi" fanining fan dasturi mazmuni va tuzilishi jihatidan o'quv dasturlari va fan Sillabuslariga qo'yiladigan barcha talablarga javob beradi deb hisoblayman va uni mazkur ta'lim yo'nalishi talabalari uchun ta'lim jarayonida foydalanish uchun tavsiya etaman.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti Arxeologiya kafedrasini mudiri: (PhD), dotsent  O.T.Ergashev

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti talabalari uchun tuzilgan "O'rta Osiyoning qadimgi va o'rta asrlar urbanizatsiyasi" fanining fan dasturiga

TAQRIZ

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatida muhim o'ziga xos o'rniga ega bo'la boshladi. Bu shubhasiz, davlatchiligimizning yangi pog'onaga chiqqanligidan dalolat beradi. Mana shu jihatlarni inobatga olgan holda, "O'rta Osiyoning qadimgi va o'rta asrlar urbanizatsiyasi" fani fan sifatida oliy o'quv yurtlarining tarix yo'nalishi talabalariga o'tilishi kerak bo'lgan fanlardan hisoblanadi. Bu fan arxeologiya fanini endi o'rganayotgan talabalar, bu fanga qiziquvchilar uchun fundamental ma'lumotlarni bera oladi.

O'rta Osiyoning qadimgi va o'rta asrlar urbanizatsiyasi fani tarixni o'rganishda asosiy fanlar qatorida bo'lib, eng ishonchli manbalarni bera oladi. Har bir tarixchi bu fanning tub mohiyatini anglay olishi, uning sir-sinoatlarini bilishi lozim. Ayniqsa, o'rta asrlar tarixini haqiqiy yuzni ochib berishda arxeologiya fani yutuqlariga murojaat qilishimiz lozim hisoblanadi. Lekin, bu fanning asl mohiyatini tushunib yetmasdan, uning maqsad va vazifasini anglay olmasdan, oldimizagi muammoning yechimini topish ancha mushkul ish hisoblanadi. Talabalar O'rta Osiyoning qadimgi va o'rta asrlar urbanizatsiyasi fani bo'yicha olingan bilimlari natijasida, davrning asosiy xususiyatlarini inobatga olgan holda, yodgorliklarning asosiy belgilarini tadqiq eta oladi. Shu bilan birga, barcha davrlarga oid bo'lgan yodgorliklarga eksperimental umumiy xulosa bera oladi.

O'quv dasturlari va fan sillabuslari ta'lim tizimidagi har bir o'quv fanining mazmuni va o'tilish tartibini, talabalar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim hamda ko'nikmalar hajmini belgilab beradigan, rasmiy pedagogik hujjat hisoblanadi. O'quv dasturi va fan sillabusi tegishli vazirliklar qoshidagi ilmiy metodik kengashlar yoki tegishli oliy ta'lim muassasalari kengashlari tomonidan tasdiqlanadi. O'quv fanining maqsad va vazifalarini belgilab berish O'quv

dasturi va fan sillabusining muhim belgisi hisoblanadi. Chunki, ayni shu narsa yaratiladigan o'quv darsligi muallifiga muayyan nuqtayi nazarni tanlash, o'qituvchiga esa pedagogik mo'ljalni to'g'ri belgilash imkonini beradi.

Ta'lim amaliyotida O'quv dasturi va fan sillabusi yaratishning konsentrik (markazlashgan) hamda tizimli usullari bor. Konsentrik yo'l bilan tuzilgan O'quv dasturi va fan sillabusida ta'limning mazmuni yoki o'quv materiallari o'qitishning keyingi bosqichida yuksakroq darajada takrorlanishi ko'zda tutiladi. Tizimli usuldagi O'quv dasturi va fan sillabuslarida esa o'quv materiallari fan mantig'iga muvofiq soddadan murakkabga qarab ketma-ket joylashtiriladi.

Ta'limning O'quv dasturi va fan sillabusi tomonidan belgilangan mazmuni darslik, o'quv qo'llanmalar, ko'rgazmali qurol va metodik tavsiyalarda to'la namoyon bo'ladi. Mazkur fan dasturi "O'rta Osiyoning qadimgi va o'rta asrlar urbanizatsiyasi" fani bo'yicha yaratilgan bo'lib, unga mazkur yo'nalish xususiyatlarini hisobga olgan holda ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlari uchun mavzular va ularni bayon etish uchun zarur ko'rsatma va tavsiyalar keltirilgan. Shuningdek, mustaqil ta'lim shakllari va mavzulari, fanni o'qitish natijalari, ta'lim texnologiyalari va metodlari hamda asosiy va qo'shimcha adabiyotlar batafsil bayon etilgan.

Fan dasturida "O'rta Osiyoning qadimgi va o'rta asrlar urbanizatsiyasi" fanining mazmuni, talabalar bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talablar, bo'lajak arxeolog va arxeologiya fani o'qituvchisining kelgusidagi kasb faoliyati uchun mos keladigan amaliy va nazariy tushunchalarni o'z ichiga qamrab oladi.

"O'rta Osiyoning qadimgi va o'rta asrlar urbanizatsiyasi" fanining fan dasturi mazmuni va tuzilishi jihatidan o'quv dasturlari va fan Sillabuslariga qo'yiladigan barcha talablarga javob beradi deb hisoblayman va uni fan sifatida mazkur ta'lim yo'nalishi talabalar uchun ta'lim jarayonida foydalanish uchun tavsiya etaman.

Madaniy meros agentligi Yahyo G'ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya instituti direktori: Tarix fanlari nomzodi, dotsent

M.M.Saidov

